

BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA TARJIMONLIK TRANSFARMATSIYALARIDAN BO'LGAN “QO'SHISH” VA “TUSHIRIB QOLDIRISH” USULLARIDAN FOYDALANISH

Axmadova Nodira Faxriddinovna
TerDU talabasi. +998934720628
axmadovanodira2005@gmail.com

Annotation: Ushbu maqola tarjima jarayonidan qo'shish va tushurib qildirishda uchraydigan muammolarni yoritib beradi va ularni yechishda qanday yondashuvlardan foydalanish mumkinligini ko'rsatib beradi.

Key words: qo'shish, tushurib qildirish, tarjima transfarmatsiyalari, ma'no.

Tarjima san'ati asrlar davomida rivojlanib kelmoqda va har bir davrda tarjimonlar o'z usullarini yaratganlar. Tarjimada bunday usullar o'z asarlarini boshqa madaniyatlar uchun yanada tushunarli qilish yoki matnning ta'sirchanligi oshirish uchun qo'llaniladi. Har qanday tarjima jarayonida tarjimon matn mazmunini iloji boricha aniq aks ettirishga intiladi. Biroq, badiiy asarlar tarjimasida tarjimonlar ko'pincha asl matn mazmunini o'zgartirmasdan, qo'shish va tushurib qoldirish kabi texnikalardan foydalanishiga to'g'ri keladi[2.P17-18].

Lavrens Venuti “tarjima” jarayonida “ko'rinmas” bo'lishi yoki “o'zgaruvchan” bo'lishi mumkinligini aytadi. U tushurib qoldirish usulining ba'zida ma'noni to'g'ri yetkazmasligi mumkinligini, shuningdek, qo'shib qo'yish usulining esa muallifning niyatidan kelib chiqishi kerakligini ta'kidlaydi.

Tarjima jarayonida muallifning niyatini yoki kontekstni to'liqroq tushuntirish uchun izohlar berilishi mumkin. Bu o'quvchilarga badiiy asar haqida kengroq tasavvur beradi.

Tarjimada ba'zi madaniy elementlarni tushuntirish zarurati tug'lsa, ularga qo'shimcha ma'lumotlar kiritiladi. Misol uchun, an'analar, urf-odatlar yoki tarixiy voqealarni izohlash. Badiiy asarlarning tiliga mos keladigan stilistik elementlarni qo'shishga harakat qilish mumkin. Bu ifoda shakllari yoki metaforalar bo'lishi mumkin. Asarda bir necha marta takrorlangan fikrlarni qisqartirish orqali matnni soddalashtirish va oqimini yaxshilash mumkin.

Ayrim joylarda noaniq ifodalar yoki bog'lanmagan fikrlar bo'lishi mumkin, ular tarjima jarayonida chiqarib yuborilishi kerak. Ba'zan muayyan madaniyatga mos kelmaydigan yoki o'quvchilarni chalkashtirishi mumkin bo'lgan unsurlarni olib tashlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqola aynan shu usullarning qanday ishlatilishi va ularning badiiy asarlar tarjimasiga ta'sirini ko'rib chiqadi.

Qo'shish – bu tarjimonlik transformatsiyalaridan biri hisoblanadi va bu biror tilning grammatik yoki leksik tuzilishi boshqa bir tilga qo'shilish yoki birlashtirish orqali o'zgaradigan vaziyatlarda qo'llashimizga to'g'ri keladi[2. P12-14]. Bu jarayonda, asosan, ma'lum bir ma'lumotni yoki mazmuni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazishda, qo'shimcha elementlar, kontekst yoki strukturaviy o'zgarishlar kiritiladi. Qo'shish usulida tarjimon tarjima qilinayotgan tilning qoidalari va madaniyatiga mos ravishda qo'shimchalar kiritishi mumkin. Bu esa tarjima qilingan matnni yaxshiroq tushunishga va qabul qilishga yordam beradi. Bu usul ko'pincha nutqning tabiiyligini va mantiqiyiligini ta'minlash uchun ishlatiladi.

Misol tariqasida, ba'zi iboralar yoki tushunchalarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish o'rniga, ularni qo'shimcha izohlar bilan kengaytirish orqali yanada aniqroq va tushunarli qilib berish mumkin.

1. “*It would have frightened him*” said Holmes.

“*Bu vaziyat uni qo'rqitib yuborgan bo'lar edi, ehtimol*” dedi Holmes.

Ushbu gapda “ehtimol” so'zi qo'shib olingan. Chunki, “would have” fe'li hali sodir bo'lmagan voqeani ifodalaydi.

2. “*It was a special paint*” he said.

“*Bu maxsus tayyorlangan, chizilgan sur'at*” dedi u.

Ushbu gapda „chizilgan” so'zi tarjimonlik transformatsiyalarining qo'shish usulidan foydalanib qo'llanilgan. Ingliz tilidagi ma'noni o'zbek tilida kitobxonlarga yetkazib berish maqsadida qo'shib olingan. Bu orqali kitobxon yozuvchi yetkazmoqchi bo'lgan ma'noni anglab olishi oson kechadi.

3. “*Keep back!*” Holmes shouted to Lestrade

“*Qaytar*” deb baqirdi Holmes Lestreydga qarata.

Bu gapni so'zma-so'z tarjima qilinganda, kitobxonga asl ma'noni yetkazib berish maqsadida, tarjimonlik transformatsiyalaridan biri bo'lgan qo'shish usuli qo'llanilgan. Asl matndagi “*Keep back!*” Holmes shouted to Lestrade gapini tarjima matniga „*Lestredga qarata* „ *Qaytar*” deb baqirib yubordi” deb tarjima qilishimiz mumkin. Bunda o'quvchiga tushunarli ma'no kelib chiqishi uchun „yubordi” va „qarata” so'zlari qo'shib olindi.

4. “*Watson, you are very slow*” said Holmes.

“*Vetson, toshbaqa Kabi harakatlanyapsan*” dedi Holmes jahl bilan.

Asar tarjimasida asl ma'noni o'z holicha yetkazib berish uchun tarjima qilinayotgan tildagi ba'zi ekvivalentlardan foydalanishimizga to'g'ri keladi. Misol uchun, asarda “*Watson, you are very slow*” gapini so'zma-so'z tarjima qilganimizda “*Vetson, juda sekinsan dedi Holmes*” degan tarjima kelib chiqadi. Ammo, qo'shish qo'llanilganda ayni ma'noni yetkazib berish uchun va toshbaqa” so'zi sekinlik, timsoli sifatida tushunilgan uchun „*Vetson, toshbaqadek harakatlanyapsan*” dedi Holmes jahl

bilan “ degan tarjima hosil bo’ladi. Bu asarning yanada mazmunliroq yoki chalkashliklarning oldini olish uchun hissa qo’shadi.

5. “*Why not*” asked Tom.

“*Nega ekan*” so’radi Tom o’ziga ishongancha.

Ushbu gapda ko’zlangan ma’noni yetkazib berish uchun „Nega ekan” so’radi Tom o’ziga ishongancha “ degan tarjima hosil qilindi. Shu bilan birga, “o’ziga ishongacha” so’zi tarjimonlik transformatsiyalarining qo’shish usulida foydalanib qo’llanilgan.

6. “*Hello*” said Ben.

“*Salom*” deb gap boshladi Ben.

Ushbu gapda asl matndagi ma’noni yetkazib berish uchun qo’shish usulidan foydalanib, “gap boshladi” qo’shib olingan. Bu kitobxonning haqiqiy ma’noni anglab olishiga yordam beradi.

Tushirib qoldirish - bu asl matndagi semantika (ma’no)si jihatidan ortiqcha bo’lgan so’zlarning tarjima jarayonida tushirib qoldirishga hisoblanadi. [2. P 18-19] Tarjimonlik transformatsiyalaridan tushirib qoldirish deb ataladigan usul, asl matndagi ma’lumotni yoki tushunchani tarjima jarayonida ba’zi qismlarini o’chirish yoki e’tiborsiz qoldirish bilan bog’liq. Bu usul asosan, ma’lumotning muhimligi yoki madaniy konteksti tufayli, tarjimada noaniqlik yoki tushunmovchilikini oldini olish maqsadida qo’llaniladi. Masalan, ba’zi madaniy elementlar tarjima qilinmasa, ularning asl matndagi ahamiyati yo’qolishi mumkin. Shu sababli, ba’zida bu qismlar tushirib qoldiriladi va shu holda tarjima qilinadi. Bu usul orqali asar yoki matnning ma’nosi va konteksti yaxshiroq saqlanadi. Tarjimadagi bu usul haqida quyidagi misollar orqali kengroq tushunchaga ega bo’lamiz:

1. *Remember Sir Charles had two brothers, the youngest brother, Roger, was a bad man.*

Janob Charlsning 2 o’g’ili bo’lib, biri Roger – yomon yigit edi.

Ushbu gapda asl matndagi *the youngest brother* so’zini tushirib qoldirish usulidan foydalangan holda “biri” deb tarjima qildik. Negaki, bu tarjimaning sodda va lo’nda bo’lishini ta’minlaydi.

2. “*What a strange story*” I said. “*Stapleton was clear man*”.

“*Qanday g’alati hikoya*”, “*Stepleton juda aqilli edi*” dedim men.

Tarjima jarayonida ingliz tilidagi sifat+ot shaklida yasalgan gaplarni o’zbek tilida birgina sifat bilan ifodday olishimiz mumkin. Misol uchun: bu gapda “*clear man*” so’zini shunchaki bir so’z bilan “*aqilli*” deb tarjima qilishimiz mumkin. Bunda ham tushirish qoldirish usuli sezilarli rol o’ynaydi.

3. “*Why not*” asked Tom. “*Does a boy get a chance to paint a fence everyday?*”

“*Nega axir*” so’radi Tom. *Har kuni bunday imkoniyat bo’laveradimi?*”

Berilgan gapda *does a boy* soʻzini tushurib qoldirdik, chunki ushbu soʻzsiz ham biz maʼnoni bemalol anglay olamiz. Yaʼni tushirib qoldirish orqali maʼnoni yanada tushunarli va loʻnda qilib yetkazib berishimiz mumkin boʻladi.

4. *“Let me try a little. If you let me, I’ll give you my apple.”*

“Birozgina sinab koʻrishimga ruxsat berganingda, senga olmamni berardim”.

Quyidagi gapda bir soʻzni yaʼni *if you let me soʻzini* qayta-qayta aytishdan qochish maqsadida biz uni tushurib qoldirilgan ekanligini koʻrishimiz mumkin. Bu kitobxonga mutolaa jarayonida maʼnoni yaxshi anglash qiyinchilik tugʻdirmasligida bevosita xizmat qiladi.

5. *“There are still some things I don’t understand”, I said to Holmes.*

“Haligacha, tushunmaydigan narsalarim bor dedim” Holmesga.

Biz asl matndagi *some* soʻzini tushirib qoldirilganmiz. Bu ham maʼnoni yaxlitligicha yetkazishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, grammatik nuqtaʼi nazardan aniq tarjima qilish koʻpincha imkonsizdir, chunki tillar oʻrtasida grammatik tuzilmalar boʻyicha mutlaq tenglik juda kam uchraydi. Koʻpincha tarjima qilinayotgan tildagi soʻz birikmalari asl matn tilidagi bilan mos kelmaydi va stilistik farqlar jarayonni yanada murakkablashtiradi. Asl va tarjima qilingan matnlar oʻrtasida soʻz tartibi, soʻzlar soni, ularning grammatik toifalari va asosiy leksik maʼnolari mukammal mos kelishi esa juda kam uchraydi. Umuman olganda, ushbu keltirilgan usullar tarjimonning ijodiy yondashuvi va oʻz uslubini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Ular orqali tarjima jarayoni yanada samarali va aniq boʻladi, natijada oʻquvchilar uchun qulayroq va tushunarliroq matn yaratiladi. Shu sababli, tarjimada grammatik transformatsiya shakli sifatida qoʻshish va tushirib qoldirish keng qoʻllaniladi.

USED LITERATURE:

1. Arthur Conan Doyle, *The Hound of Baskervilles*, Macmillan, 2005,
2. Allayorova R. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. Urganch, 2008
3. Arthur Conan Doyle, *The Hound of Baskervilles*, Macmillan, 2005,
4. Oxford University. *Oxford Dictionary of Current English*. – USA: Oxford University press, 2006.
5. Nafisa, A. *Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol*. *JournalNX*, 40-43.
6. *Cambridge Advanced Learner’s Dictionary*. Cambridge University Press, 2008
7. Nabi, F., & Xudayqulov, A. (2024). *GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION*. *Interpretation and Researches*, (8(30)). Извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>
8. Mark Twain, *The Adventures of Tom Sawyer*, 2004,

9. Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story “A Christmas Carol” by Charles Dickens into uzbek. *ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ*, 34.
10. Aliboyeva, N. A. Q. (2023). LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN’S LITERATURE. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 4(07), 21-25.
11. Aliboyeva, N. A. Q. (2022). The direct translation of roald dahl's novel “matilda” into Uzbek language. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(9), 77-80.
12. Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(5), 37-40.